



## XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 15-sentabr

VII-11-94-11-163-K/25

Farg'ona tumani

### **Farg'ona tumanida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

So‘nggi yillarda xalqimizning uzoq yillik qadriyatları va an'analarini o‘zida aks ettirgan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazishda shuhratparastlik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik, isrofgarchilik, xalqimizning urf-odatlari va an'analarini mensimaslik kabi illatlar ko‘zga tashlanmoqda.

Biroq, o‘rganishlar tahlili, shuningdek aholi bilan bevosita o‘tkazilgan muloqotlar, jamoatchilik vakillaridan kelib tushgan murojaatlar ushbu sohada bir qator jiddiy muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ayrim fuqarolar dabdabali to‘y marosimlari va ularni o‘tkazishga sarflanadigan katta xarajatlar oqibatida qarzga botmoqda va undan qutulish maqsadida chet elga ishslash uchun chiqib ketmoqda.

Ba‘zi fuqarolar to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni dabdaba bilan o‘tkazishni qo‘snilari, qarindoshlar tomonidan bo‘ladigan tanqidlardan, qoralashdan, umuman olganda, ijtimoiy tazyiqdan xalos bo‘lish vositasi sifatida tushunmoqda. Vaholanki, bunday tadbirlar yaqin qarindoshlar o‘rtasida qarzdorlikning vujudga kelishiga va oqibatda keskin ziddiyatlarga olib kelmoqda.

«Charlar», «aqiqa marosimi», «muchal to‘yi», «qiz majlis», «kuyov chaqiriq», hayitda «kelin ko‘rish» kabi marosimlar aholi tomonidan ortiqcha deb baholanmoqda. Biroq, bunday marosimni tashkil etayotgan shaxslarda tadbirlarni obro‘liroq joyda o‘tkazishga, o‘zining yutuqlarini ko‘z-ko‘z qilishga, moddiy mavqeい bilan maqtanishga intilish kuchaymoqda.

Aksariyat to‘yxona egalari ixcham va kamxarj o‘tkazish niyatida bo‘lgan fuqarolardan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda belgilangan qoidalarga zid ravishda to‘y xarajatlarini ikki-uch baravar miqdorda asossiz undirib olmoqda.

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda san’atkorlar haddan ziyod baland narxlarda xizmat ko‘rsatmoqda, o‘z tomosha xizmatlarini ko‘rsatish davomida milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga mos kelmaydigan, «ommaviy madaniyat» illatlarini targ‘ib etadigan hamda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xatti-harakatlar namoyish etilmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlarning tobora avj olishi ming-minglab oilalarning nafaqat ijtimoiy ahvoliga, balki butun hayotiga, qolaversa, jamiyatimizda qaror topgan ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Mazkur holatlarga chek qo‘yish, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minalash, aholi, ayniqsa, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni qat’iy tartibga solishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Bunday salbiy illatlarga barham berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida, shuningdek fuqarolar yig‘inlarida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazilishini tartibga solish masalalari bo‘yicha komissiyalar tuzilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019-yil 14-sentyabrdagi “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2736-III/KQ-592-III-son Qo‘shma qarori ijrosini ta’minalash hamda tumanda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazishni ixchamlashtirish, namunali oilaviy tadbirlar o‘tkazilishini tashkil etish va ushbu masalada targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

## Q A R O R   Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019-yil 14-sentyabrdagi 2736-III/KQ-592-III-son Qo‘shma qarori **Rahbarlik va ijro** uchun qabul qilinsin.
2. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishni tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
3. Tumanda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashi huzurida to‘ylar, oilaviy tantanalar ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
4. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va tartibli o‘tkazishni ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining 2019-yil 14-sentyabrdagi 2736-III/KQ-592-III-son Qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga asosan, tumanda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi huzurida to‘ylar, oilaviy tantanalar ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasining maqsad va vazifalari quyidagi tartibda belgilansin:

tuman hududida o‘tkaziladigan to‘ylar, ma’raka va marosimlar, oilaviy unga doir boshqa tadbirlarga jamoatchilik nazoratini o‘rnatish hamda to‘y va marosim egalari bilan ixcham, isrofgarchiliksiz va belgilangan talablar asosida, o‘tkazish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

keng jamoatchilik vakillarini jalb qilgan holda, mazkur tadbirlarni tartibga solish hamda ixcham va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar asosida o‘tkazish bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

mazkur tadbirlarni amalga oshirishda ijtimoiy tabaqalanishga yo‘l qo‘ymasdan o‘tkazish bo‘yicha jamoaviy suhbatlar tashkil etish;

ushbu tadbirlarni o‘tkazishni rejalashtirgan oila vakillari bilan, ayniqsa, nikohning ilk davrlarida er-xotin va ularning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash borasida suhbatlar tashkil etish;

xotin-qizlarga mazkur tadbirlarni kamxarj qilib o‘tkazishni, ularda ortiqcha isrofgarchilikka berilish oila iqtisodiga va yosh oilaning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini hayotiy misollar orqali keng tushuntirish;

turmush qurish arafasida turgan yoshlar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar uyuşhtirishi, ularni oilaviy hayotga tayyorlashi, mazkur tadbirlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish tavsiya etilsin.

**4. Ushbu Kengash qarori bilan aholini tanishtirish maqsadida tumandagi barcha mahallalari, aholi yashash va mehnat jamoalari joylariga hamda restoran, oshxona, kafe va to‘xonalarda tadbirlarni o‘tkazish tartib taomillarini alohida eslatma tarzida tayyorlanib qo‘yilishi ta’milansin.**

Komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar **har chorakda** keng muhokama qilib borilsin va bu haqida jamoatchilikka xabardor qilinsin.

**5. Farg‘ona tuman IIB boshlig‘i J.Xasanovga:**

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishida jamoat tartibi va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda fuqarolar xavfsizligiga jiddiy xavf solishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish choralarini doimiy ravishda ko‘rib borsin.

**6. Farg‘ona tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (Ergashev), “Vodil yog‘dusi” gazetasi muxarriri (Dadaxo‘jaev)ga:**

Tuman hokimligining rasmiy veb sayti va boshqa ommaviy axborot vositalariga to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish tartibiga rioya etilishi holati, urf-odatlarimiz va an’analarimizning haqiqiy mohiyati hamda ahamiyatini keng xalq ommasiga muntazam yetkazib borish tavsiya etilsin.

**7. Tuman komissiyasi azolariga:**

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishining doimiy monitoringini amalga oshirib borsin va uning natijalariga ko‘ra tegishli takliflarni Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashiga kiritib borish;

Ushbu Qarorning ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

**8. Tuman bosh imom-xatibi X.Ashurovga:**

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda diniy mavzuda ma’ruza ko‘zda utilgan bo‘lsa, ushbu ma’ruza diniy tashkilotining vakili tomonidan o‘qilishi;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar, xotiraga bag‘ishlangan tadbirlarni ixcham o‘tkazish va tadbirlarni dabdabali o‘tkazish o‘rniga mablag‘ni kam ta’minlangan fuqarolarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirishni targ‘ib qilish;

imom-xatiblar to‘ylar va marosimlardagi ma’ruzalarida aholini e’tiborini yoshlar tarbiyasi, ota-onaning mas’uliyati, jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlarni oldini olish, tinchlik va mustaqillik ne’matini asrash, shukronalik tuyg‘usini shakllantirish kabi masalalarga qaratishi tavsiya etilsin.

**9. Tuman hokiminining maslahatchisi (Obidova), tuman hokimligi axborot xizmati (Ergashev), Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi(Omonova)ga:**

mazkur Kengash qarori e’lon qilinishi va to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar va boshqa tadbirlarni tartibga solish masalalarini keng yoritish va targ‘ibot ishlarini olib borish;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali namunali to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishi, ijtimoiy roliklar yaratishi, uslubiy qo‘llanmalar va targ‘ibot materiallarini tayyorlash;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan “ommaviy madaniyat” unsurlari namoyon bo‘lishining oldini olish maqsadida muntazam ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

**10. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:**

ushbu Kengash qarorining mazmun-mohiyatini o‘zları saylangan saylov okruglaridagi hududlarda keng targ‘ib qilish hamda qaror ijrosi yuzasidan jamoatchilik va deputatlik nazoratini o‘rnatishlari aytib o‘tilsin.

**11. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta’minlab borishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib, tuman hokiminining o‘rinbosarlari I.Toshpo‘latov va X.Abdug‘anieva hamda Komissiya a’zolari belgilansin.**

**12. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minalash va huquqiy masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyalari raislari O.Dadajonova va Q.Makarovlar zimmasiga yuklansin.**

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO  
TADJIYEVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani  
Kengashining  
2025-yil 15-sentabrdagi  
VII-11-94-11-163-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishni tartibga  
solish to‘g‘risidagi  
Nizom**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi hamda xalqimizning milliy urf-odatlari, ma’naviyati, madaniyati, an’analari va qadriyatlarini hurmat qilishga, jamoat tartibini saqlashga, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga, oilaviy tadbirlarni o‘tkazishda shuhratparastlik, dabdaba va isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan.

Mazkur Nizom Farg‘ona tumanida o‘tkaziladigan rasmiy marosimlar, davlat va jamiyat oldidagi buyuk xizmatlariga ega shaxslarni xotirlash va yubiley munosabatlari bilan bo‘lib o‘tadigan, shuningdek, davlat idoralari, korxona va muassasalarning tashkil etilgan kuni bilan bog‘liq tadbirlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solishda ijtimoiyadolat va qonuniylik, milliy urf-odat va qadriyatlarga sodiqlik, boshqa din va millat vakillarining urf-odatlarini hurmat qilish hamda jamoatchilik fikrini inobatga olish tamoyillariga rioya etiladi.

**2-bob. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish  
tartibiga qo‘yiladigan umumiy talablar**

3. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar faqat bir kun (*dafn etish marosimi bundan mustasno*) soat 06:00 va 23:00 oralig‘ida o‘tkaziladi.

Farg‘ona tumani sharoitlaridan kelib chiqib, osh berish marosimining vaqtini soat 06.00dan 08.00gacha etib belgilanadi.

Soat 23:00 dan keyin to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni davom ettirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda 200 nafargacha, mazkur tadbirlar munosabati bilan osh berish marosimida 250 nafargacha kishi qatnashadi.

Qo‘shaloq to‘ylarda 250 nafargacha, u bilan bog‘liq osh berish marosimida 300 nafargacha kishi qatnashishi mumkin.

Dafn etish va motam marosimlari ko‘pi bilan uch kun mobaynida cheklanmagan miqdordagi fuqarolar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin, osh berish marosimi bundan mustasno.

4. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda:

to‘y o‘tkazuvchi shaxslar to‘ydan kamida bir hafta oldin yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini xabardor qilishi;

nikohni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, kelin-kuyovning to‘yxonaga kelishi va ketishi bilan bog‘liq oilaviy tadbirlarda 3 tadan ko‘p bo‘lgan yengil avtomashinadan yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi boshqa transport vositalaridan foydalanmaslik;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda pulli avtotransport xizmati litsenziyaga ega bo‘lmagan tashuvchilar tomonidan ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik, to‘y egalarining shaxsiy avtomashinalaridan hamda homiylar yordamida jalg etilgan avtotransport vositalaridan foydalanilgan hollar bundan mustasno;

shuhratparastlik, dabdababozlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligiga putur yetkazmaslik, jamiyatda shakllangan odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish talab etiladi.

5. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda diniy mavzuda ma’ruza ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ushbu ma’ruza diniy tashkilotining vakolatli vakili tomonidan o‘qiladi.

6. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda litsenziyalanadigan faoliyat turidan foydalanilgan taqdirda, litsenziyali xizmat ko‘rsatadigan jismoniy va yuridik shaxslar to‘yxona, kafe, restoran ma’muriyatiga va ushbu xizmatdan foydalanuvchilarga bu kabi xizmatlarni ko‘rsatishga ruxsat beruvchi litsenziyaning nusxasini taqdim etadi.

7. Milliy an’analarga yot, odob-axloq qoidalariga zid bo‘lgan turli shoulni, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan to‘ylar, oilaviy tantanalardan oldingi, tadbir davomidagi va undan keyingi qo‘sishimcha rasm-rusumlarni («ota ko‘rdi», «sep yoydi», «quda chaqirdi», «kuyov chaqirdi», «kelin chaqirdi», «tog‘ ora yuborish» va hokazolarni) o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dafn etish va motam marosimlari bilan bog‘liq ortiqcha tadbirlarni («yetti», «payshanbalik», «yigirma», «qirq», «yil oshi» va hokazolarni) o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

8. To‘yxona, kafe va restoranlarda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda:

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar ishtirokchilari soniga, ularni o‘tkazish vaqtiga qat’iy rioya etish;

atrofda yashovchi aholining tinchligi va osoyishtaligini hamda maishiy shovqinga qarshi kurash bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzmaslik;

oziq-ovqat mahsulotlari sifat sertifikati talablari darajasida bo‘lishi hamda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etish lozim.

9. To‘yxona, kafe va restoranlarda 50 nafar va undan ortiq shaxslar ishtirokida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazish uchun tadbir o‘tkazuvchi shaxs hamda to‘yxona, kafe va restoran rahbari o‘rtasida shartnomaga tuziladi. Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatları, ish va xizmat turi, to‘lov, xarajatlar miqdori, tadbir ishtirokchilari soni, muddati hamda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablar ko‘rsatiladi.

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda san’atkorlar (xonanda, sozanda, raqqosa, boshlovchi, so‘z ustasi, fotograf va boshqalar) qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma asosida xizmat ko‘rsatadi.

Qonun hujjatlarida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda ikki nafardan ortiq xonandaning (guruhning) xizmat ko‘rsatganligi uchun bir necha baravarga oshirilgan miqdorda soliqqa tortish tartibi belgilanishi mumkin.

10. To‘yxona, kafe va restoranlar ma’muriyati to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilayotganda xavfsizlik choralarini ta’minlashi shart.

11. Ushbu Nizomning 3, 4-bandlarida, 8-bandining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida, 9-bandining ikkinchi, uchinchi xatboshilarida, 10-bandida nazarda tutilgan qoidalar xonadonlarda (guzarlarda) tashkil etiladigan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarga ham tatbiq etiladi.

### **3-bob. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda jamoatchilik va davlat nazorati**

12. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyasi (bundan buyon matnda “Komissiya” deb yuritiladi), O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi, tuman “Nuroniyalar” jamg‘armasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Xotinqizlar bo‘limi, Farg‘ona tumani bosh imom xatibi, tuman yoshlar ishlari bo‘limi o‘z vakolatlari doirasida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishi ustidan jamoatchilik nazorati tashkil etilishini ta’minlaydi.

13. Komissiya:

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishi ustidan jamoatchilik nazorati o‘tkazilishini tashkil etadi, shuningdek, bu borada monitoringni amalga oshiradi;

keng jamoatchilik fikrini o‘rgangan holda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham, isrofgarchiliksiz va belgilangan talablar asosida o‘tkazish bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib boradi hamda o‘rnatilgan tartibga rioya etmagan fuqarolarni mahalla fuqarolar yig‘iniga taklif qilgan holda jamoatchilik o‘rtasida muhokama qiladi.

14. Mahalla fuqarolar yig‘ini, «Nuroniy» jamg‘armasi hududiy bo‘limlari:

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq milliy va diniy qadriyatlarga, axloq qoidalariga zid bo‘lgan marosimlar, nomaqbul odatlar va ularning salbiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borishi va tegishli tavsiyalar berishi;

to‘y egalari tomonidan sodir etiladigan milliy urf-odat va an’analarni mensimaslik, shuhratparastlik, isrofgarchilik kabi xatti-harakatlar ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishi, tegishli talablarga rioya etilmagan holatlarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqishi;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham, keng aholi manfaatlarini, milliy qadriyat va an’analarni hisobga olgan holda, ijtimoiy

tabaqalanishga yo‘l qo‘ymasdan o‘tkazish bo‘yicha jamoaviy suhbatlar tashkil etishi;

hududda o‘tkazilishi rejalashtirilgan har bir oilaviy tadbirdan xabardor bo‘lishi, uning o‘tkaziladigan joyi, ishtirokchilar soni bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lishi;

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlardan oldin va keyin o‘tkaziladigan ortiqcha rasm-rusum va marosimlarning oldini olish choralarini ko‘rishi lozim.

**15. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi:**

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan «ommaviy madaniyat» unsurlari namoyon bo‘lishining oldini olish maqsadida muntazam ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borishi;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali namunali to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishi, ijtimoiy roliklar yaratishi, uslubiy qo‘llanmalar va targ‘ibot materiallarini tayyorlashi;

tuman hokimligi bilan hamkorlikda FHDYo idoralarida nikohdan o‘tayotgan kelin-kuyovlarga oila ma’naviyati, axloqi va ajdodlarimizning mustahkam oila haqidagi o‘gitlari bayon qilingan ma’lumotlar, kitoblar va boshqa materiallar berib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yishi lozim.

**16. Xotin-qizlar bo‘limi:**

to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazishni rejalashtirgan oila vakillari bilan, ayniqsa, nikohning ilk davrlarida er-xotin va ularning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash borasida suhbatlar tashkil etishi;

xotin-qizlarga to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni kamxarj qilib o‘tkazishni, ularda ortiqcha isrofgarchilikka berilish oila iqtisodiga va yosh oilaning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini hayotiy misollar orqali keng tushuntirishi;

«Ota-onalar universiteti» mashg‘ulotlarida sarpo, buyum yig‘ishga ruju qo‘yish, oila byudjetini noto‘g‘ri rejalashtirish va boshqa nosog‘lom orzu-havaslarning salbiy oqibatlarini tushuntirishi lozim.

**17. tuman yoshlar ishlari bo‘limi:**

turmush qurish arafasida turgan yoshlar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar uyushtirishi, ularni oilaviy hayotga tayyorlashi, to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishi;

yoshlar o‘rtasida urf bo‘layotgan «ommaviy madaniyat», «sevgi tarixi», qimmatbaho mashinalar korteji va boshqalarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib beradigan ijtimoiy roliklar va filmlar, badiiy asarlar tayyorlash hamda targ‘ib qilish tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

**18. tuman FHDYo bo‘limi:**

nikohdan o‘tish maqsadida ariza bergen shaxslar hamda ularning ota-onalari bilan yashash joylarida, mahallada suhbatlar uyushtirishi, ularga nikohdan o‘tish tartib-taomillari, to‘y marosimlarini kamxarj va ixcham o‘tkazish bo‘yicha tushuntirish berishi;

tuman hokimligi va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda din ulamolari, tibbiyot xodimlari, psixologlar ishtirokida «Yosh kelin-kuyovlar klubi», «Oila maktabi», «Qudalar suhbati» kabi kurslar tashkil qilishi;

nikohdan o‘tish haqidagi arizani ro‘yxatdan o‘tkazgandan so‘ng uch ish kunida nikohlanuvchi shaxslar yashayotgan mahalla fuqarolar yig‘inini bu haqda xabardor qilishi lozim.

19. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, mahalla yettiligi bilan birgalikda fuqarolar o‘rtasida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o‘tkazishga, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini aholi ongiga singdirishga, to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarning shuhratparastlik va dabdaba bilan o‘tkazilishining oldini olishga qaratilgan aniq va maqsadli profilaktik tadbirlarni tashkil etishi, shuningdek bunday tadbirlar davomida jamoat tartibini ta’minlashi lozim.

To‘yxona, kafe va restoranlar ma’muriyati rejalashtirilayotgan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar haqida ushbu tadbirlar o‘tkazilishidan kamida ikki kun oldin tegishli hududdagi ichki ishlar organiga yozma ravishda xabar berishi lozim.

20. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi deputatlari:

To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishga oid qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan doimiy deputatlik nazoratini amalga oshiradi.

Deputatlik nazorati natijalari bo‘yicha mahalliy urf-odatlar, milliy an’analardan kelib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan ushbu Nizom doirasida tegishli hududdagi to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa qo‘srimcha talablar hamda tavsiyalar belgilanishi mumkin.

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani  
Kengashining  
2025-yil 15-sentabrdagi  
VII-11-94-11-163-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

**Tumanda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o’tkazilishini tartibga solish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi huzurida to‘ylar, oilaviy tantanalar ma’raka va marosimlar o’tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha**

### **TUMAN KOMISSIYASI TARKIBI**

**1. O.Dadajonova**

- xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi, *tuman komissiyasi rahbari*

**2. Q.Makarov**

- xalq deputatlari tuman Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi, *tuman komissiyasi rahbari o‘rinbosari*

**3. X.Abdug‘anieva**

- tuman hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, *tuman komissiyasi rahbari o‘rinbosari*

**4. F.Omonova**

- Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari, *tuman komissiyasi rahbari o‘rinbosari*

**5. Sh.Raximov**

-Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri

**6. I.Toshpo‘latov**

- tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

**7. D.Xomidov**

- O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi rahbari

**8. T.Madaliev**

- tuman “Nuroniyalar” jamg‘armasi boshlig‘i

**9. S.Maxkamov**

- tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i

**10. J.Xasanov**

- tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

**11. Z.Masudov**

- tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i

**12. A.Ergashev**

- tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari

**13. U.Yuldashev**

-tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori

- 14.** I.Sharopov - tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i  
**15.** X.Toshboev - tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i  
**16.** M.Alijonov - Yoshlar agentligi tuman bo‘limi rahbari  
**17.** X.Ashurov -tuman bosh imom-xatibi  
**18.** M.Abdullaev - tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i  
**19.** S.Dadaxo‘jaev - tuman “Vodil yog‘dusi” gazetasi bosh muharriri  
**20. O.** Raxmonov - tuman Kasaba uyushmasi raisi  
**21.** M. Obidova - tuman hokimining maslahatchisi, *tuman komissiyasi kotibi*

**Izoh:** komissiya a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani  
Kengashining  
2025-yil 15-sentabrdagi  
VII-11-94-11-163-K/25 -son qaroriga  
3-ilova

**To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va tartibli o‘tkazishni  
ta’minalash bo‘yicha**

**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ullar
<b>To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish</b>				
1.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g‘risidagi nizom talablari ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.	<p>1. Nizom talablari buzilishi holatlarini tuman Kengash sessiyasilariga kiritish va uning muhokamasini tashkil qilib borish.</p> <p>2. “Mahalla yettiligi”, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari ishtirokida jamoatchilik nazoratini olib borish.</p>	Har chorak yakuni bo‘yicha	Xalq deputatlari tuman Kengashi, Xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari bo‘limi, «Nuroniy» jamg‘armasi, “Mahalla yettiligi”
2.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishida jamoat tartibi va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash hamda fuqarolar xavfsizligiga jiddiy xavf solishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish.	Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha doimiy reydlarni tashkil etish va Nizom talablarining ijrosini ta’minalash.	Doimiy ravishda	Tuman IIB YHBB
3.	Joylarda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishining doimiy monitoringini amalga oshirish.	Doimiy monitoringni olib borish.	Alovida chora-tadbirlar rejasiga muvofiq	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi
4.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham hamda tartibli o‘tkazish bo‘yicha aholi keng qatlamlari o‘rtasida sotsiologik so‘rov o‘tkazish, uning natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish.	Maxsus ishlab chiqilgan savolnomalar asosida sotsiologik so‘rov o‘tkazish.	2025-2026 yillar davomida	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati
<b>To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini olib borish</b>				
5.	Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining “Farg‘ona	O‘zbekiston Respublikasi Oliy	2025 yil sentyabr	Xalq deputatlari tuman Kengashi,

	tumanida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorining mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish.	Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a’zolari, Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi deputatlari ishtirokida uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etish.	— dekabr oylari	Xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari bo‘limi, «Nuroniy» jamg‘armasi, “Mahalla yettiligi”
6.	Mahallalarda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishni tartibga solish bo‘yicha komissiyalar hamda jamoatchilik bilan birgalikda namunali to‘ylar o‘tkazilishini tashkil etish.	Xonodon egalari tomonidan rejalashtirilayotgan to‘ylar ro‘yxatini tuzish, ushbu xonadonda tadbirning namunali o‘tkazilishiha ko‘maklashish.	Ro‘yxat asosida	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi
7.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazish bilan bog‘liq milliy va diniy qadriyatlarga, axloq qoidalariga zid bo‘lgan marosimlar, nomaqbul odatlar va ularning salbiy oqibatlari to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini olib borish.	Joylarda keng jamoatchilik ishtirokida uchrashuvlar va davra suhbatlarini tashkil etish.	Doimiy ravishda	Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman bosh imom xatibi, Xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari bo‘limi, «Nuroniy» jamg‘armasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi, NNT
8.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarning ma’naviy va ma’rifiy asoslarini mustahkamlash borasida uchrashuvlar, davra suhbatlari va boshqa targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish.  Bunda: milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan «ommaviy madaniyat»ning salbiy ko‘rinishlarining oldini olish; nikohdan o‘tayotgan kelinkuyovlarga oila ma’naviyati, axloqi va ajdodlarimizning mustahkam oila haqidagi o‘gitlaridan iborat tavsiyalar berib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratish.	Targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.	Alohida chora-tadbirlar rejasiga muvofiq	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi
9.	Xotin-qizlar o‘rtasida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va tartibli o‘tkazish bo‘yicha jamoatchilik muhokamalari hamda	Jamoatchilik muhokamalari, maslahatlashuvlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil qilish.	Alohida chora-tadbirlar rejasiga muvofiq	Xotin-qizlar qo‘mitasi

	<p>maslahatlashuvlar o'tkazish, davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil qilish. Bunda:</p> <p>to'y-hashamlar o'tkazishni rejalashtirgan xotin-qizlar bilan doimiy suhbatlar o'tkazib borish;</p> <p>xotin-qizlarga to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda ortiqcha isrofgarchilikka berilish oila iqtisodiga va yosh oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini hayotiy misollar orqali keng tushuntirish;</p> <p>«Ota-onalar universiteti» mashg'ulotlarida sarpo, buyum yig'ishga ruju qo'yish, oila byudjetini noto'g'ri rejalashtirish va boshqa nosog'lom orzu-havaslarning salbiy oqibatlarini tushuntirish masalalariga alohida e'tibor qaratish.</p>		
10.	<p>To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazish bo'yicha muqaddas dinimizda ko'zda tutilgan amallar va qoidalarni tushuntirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish. To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda imom-xatiblar e'tiborini:</p> <p>Tuman FHDYo organi tomonidan kelin-kuyovlarga nikoh guvohnomasi berilgandan so'ng shar'iy nikoh o'qishga;</p> <p>mahallalardagi diniy-ma'rifiy uchrashuvlar, an'anaviy suhbatlar va juma namozlarda to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, to'ylarga sarpo va buyum yig'ishga ruju qo'ymaslik, ularni o'tkazishda belgilangan talablarga amal qilishga;</p> <p>turli xil bid'at va xurofotlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi oldini olish bo'yicha nasihatlar berib borish zarurligi to'g'risidagi masalalarga qaratish.</p>	<p>Targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.</p>	<p>Alovida chora-tadbirlar rejasiga muvofiq</p>
11.	<p>Yoshlar o'rtasida oilaning muqaddasligi, to'ylar, oilaviy</p>	<p>Uchrashuvlar, davra suhbatlari,</p>	<p>Alovida chora-</p>

	<p>tantanalar, ma'raka va marosimlarning ixcham va tartibli o'tkazilishi to'g'risida turli uchrashuvlar, tadbirlar, davra suhbatlari, maxsus o'quv mashg'ulotlari, ochiq darslar tashkil qilish. Bunda:</p> <p>    turmush qurish arafasida turgan yoshlar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar uyuştirish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o'tkazish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;</p> <p>    yoshlar o'rtasida urf bo'layotgan «ommaviy madaniyat» («Love story», qimmatbaho mashinalar korteji va boshqalar)ning salbiy oqibatlarini ko'rsatib beradigan targ'ibot tadbirlariga alohida e'tibor qaratish.</p>	<p>maxsus o'quv mashg'ulotlari, ochiq darslar va boshqa turli tadbirlarni tashkil qilish.</p>	tadbirlar rejasiga muvofiq	maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
12.	To'yxona egalari tomonidan to'y xarajatlarining asossiz ikki-uch baravar miqdorda oshirilishining oldini olish.	To'yxona egalari orasida uchrashuvlar va tushuntirish ishlarini olib borish.	Doimiy ravishda	Tuman savdo-sanoat palatasi, tuman soliq inspeksiyasi
13.	To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni namunali tashkil etish bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inlar raislari va ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari reytingi mezonlarini ishlab chiqish.	Mahalla fuqarolar yig'inlar raislari va ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari reytingi mezonlarini ishlab chiqish.	2026 yil 1 yanvarga qadar	Ichki ishlar bo'limi, O'zbekiston "Mahalla" uyushmasi Farg'ona tuman bo'limi
<b>To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va tartibli o'tkazishni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish</b>				
14.	To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o'tkazish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik muhokamasini tashkil etish.	To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o'tkazish masalalari muhokamasini tashkil etishga doir media-reja ishlab chiqish.	2025 yil sentyabr - oktyabr	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman "Vodil yog'dusi" gazetasi
15.	To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishga ortiqcha sarf-xarajatlar qilinayotgani, buning oilalar iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida maqolalar, suhbatlar va intervylular tayyorlash.	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlar deputatlari ishtirokida suhbatlar va intervylular tashkil etish.	2025 yil oktyabr — dekabr	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman "Vodil yog'dusi" gazetasi, Xalq deputatlari tuman Kengashi
16.	Namunali to'ylarni tashkil etish	To'ylarni namunali	2025 yil	Respublika

	istagini bildirgan va bunday to‘ylarni tashkil etgan shaxslarning ijobiq qiyofasini shakllantirish.	tashkil shaxslarni etgan aniqlash va turli janrlarda materiallar tayyorlash.	oktyabr — dekabr	Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman “Vodil yog‘dusi” gazetasি
17.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar ishtirokchilari soni va o‘tkazilish vaqt, ularga xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar faoliyatining bugungi holati, bu borada fuqarolarning haqli e’tirozlar haqida mulohazali materiallar tayyorlash.	Tahliliy materiallar, reportajlar, intervyular, maqolalar tayyorlash.	2025-2026 yillar davomida	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman “Vodil yog‘dusi” gazetasি
18.	To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda, avvalambor, barcha darajadagi tashkilot-korxona rahbarlari shaxsan namuna bo‘lishlari zarurligi, kerak bo‘lsa, bu borada ularning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini belgilashga, bu bo‘yicha jamoatchilik fikrini inobatga olmaydigan fuqarolarni mahalla fuqarolar yig‘iniga taklif etib, ushbu masalani mahalla va mehnat jamoasida muhokama qilishga qaratilgan materiallar tayyorlash.	Tahliliy materiallar, reportajlar, intervyular, maqolalar tayyorlash.	2025 yil oktyabr — dekabr	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman “Vodil yog‘dusi” gazetasি
19.	Xalq orasida ommalashgan veb-saytlarda jamoat tashkilotlari, diniy ulamolar, aholi vakillarining to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlardagi dabdababozliklar, ortiqcha isrofgarchilik va shuhratparastlikning oldini olishga qaratilgan fikr-mulohazalarini yoritib borish.	Ushbu taniqli mavzuda shaxslar, jamoat arboblari, ziyorilar bilan suhbatlar, intervyular uyushtirish.	2025-2026 yillar davomida	Tuman hokimligi matbuot xizmati, tuman “Vodil yog‘dusi” gazetasি